



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Yuldashev Shodiyor

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

Matmuratova Nilufar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15309345>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 25- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 30- Aprel 2025 yil

KEY WORDS

raqamli iqtisodiyot, oliy ta'lim, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim, raqamli muhit.

ABSTRACT

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ta'siri, oliy ta'limni raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari, shuningdek, O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan. Muammo va kamchiliklar bilan bir qatorda istiqbolli echimlar ham taklif etilgan.. Mazkur tadqiqot zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda har bir institut va universitet, maktab, shifoxona, muassasa, korxonada, har bir uyda mavjud. Ular robototexnika sohasida, sun'iy intellekt sohasida, tibbiyotda, qishloq xo'jaligida, virtual haqiqatni yaratish uchun ishlatiladi. Mutaxassislar fikricha, raqamli texnologiyalar har kuni jadal rivojlanadi. Raqamli texnologiyalarning tez sur'atda rivojlanishi jahondagi barcha sohalarda, jumladan, ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Oliy ta'lim muassasalari bu yangilanishlarga moslashishi, raqamli muhitda samarali faoliyat yuritishni o'rganishi zarur. Axborot texnologiyalari, sun'iy idrok, bulutli xizmatlar va katta ma'lumotlar tahlili oliy ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli iqtisodiyot — bu raqamlashgan vositalar orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat bo'lib, ishlab chiqarish, tarqatish, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarini qamrab oladi. Bunday iqtisodiy muhitda mutaxassislarga bo'lgan talablar tez o'zgaradi. Oliy ta'lim muassasalari ushbu talablariga javob berish uchun ta'limning shakl va mazmunini yangilashi, raqobatdosh kadrlar tayyorlash usullarini yaratishi lozim.

Mulohaza va natijalar:

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni

ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi "Raqamli Toshkent" kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.[1]

Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida raqamli muhitni joriy etish ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Prezident qarori va farmonlari asosida ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish kabi ustuvor vazifalar belgilangandir. Xususan, "Raqamli universitet" konsepsiyasi doirasida ko'plab oliy o'quv yurtlarida raqamli infratuzilmalar shakllantirilayotgani bunga yaqqol misoldir.[2]

Oliy ta'limda raqamlash jarayoni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Onlayn ta'limni joriy etish: Turli veb platformalar (Coursera, Moodle, EdX va boshqalar) orqali masofadan turib o'qish imkoniyatlari kengaymoqda.

- Avtomatlashtirilgan baholash usullari: Ta'lim jarayonini nazorat qilishning zamonaviy vositalari ishlab chiqilmoqda.

- Raqamli infratuzilmani takomillashtirish: Elektron dars jurnallari, shaxsiy profillar, elektron kutubxonalar faol ravishda foydalanilmoqda.

- Ma'lumotlar tahlili orqali samarani oshirish: Statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Bu yo'nalishlarni yanada ko'paytirish va sifatli ta'lim tizimini yaratish uchun yurtimizda ham yanada ko'p islohatlar va chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Shuningdek raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish bilan bir qatorda o'ziga hos muammolarga ham ega:

- Texnik imkoniyatlarning cheklanganligi;
- Pedagog kadrlarning raqamli malakasining yetarli emasligi;
- Moliyaviy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi;
- Elektron ta'lim resurslarining kamligi.

Muammolarni bartaraf qilish usullari:

- Shaxsiylashtirilgan ta'lim modellarini sun'iy intellekt asosida ishlab chiqish;
- AR/VR texnologiyalari yordamida faol o'qitish muhitini yaratish;
- Xalqaro elektron ta'lim tizimlari bilan integratsiya qilish;
- Ilmiy tadqiqotlar va ma'lumotlar bazasini kengaytirish.[3]

Xulosa

Oliy ta'lim tizimi raqamli iqtisodiy muhitga mos ravishda jadal islohotlarga muhtoj. Yangilangan ta'lim modellarini joriy etish, raqamli madaniyatni shakllantirish, o'qituvchi va talabalarning raqamli salohiyatini oshirish eng muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bu jarayonda davlat, ta'lim muassasalari va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik talab etiladi. Albatta, talabalarga qulay sharoit yaratish va bilim darajasi oshirish, kelajakka mamlakatimizga tajribali kadrlar yetkazishsizning va bizning eng katta vazifamiz hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2030 yillarda raqamli iqtisodiyot rivojini ta'minlash konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. Mamarahimov Q.X., "Raqamli iqtisodiyot va ta'lim tizimidagi yangi tendensiyalar", Toshkent, 2023.

3. 3.Mirzayev A. "Oliy ta'limda raqamlashtirish jarayonlari va istiqbollari", "Iqtisod va ta'lim" jurnali, 2022.



INNOVATIVE
ACADEMY